



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	



METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI

Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institute,

"Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: jamshidjon.urazov81@gmail.com

Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar insituti talabasi

E-mail: sevincheshimova621@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada metaolam texnologiyalari asosida shakllanayotgan virtual turizmning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi. Metaolam turizmining rivojlanish jarayoni, uning jahon iqtisodiyotiga ta'siri, foydalanuvchi ma'lumotlari xavfsizligi, raqamli mulk huquqlari va virtual mehnat bozorining shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, metaolam texnologiyalarini O'zbekiston turizm tizimiga joriy etish hamda me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: metaolam turizmi, virtual reallik, raqamli iqtisodiyot, ma'lumotlar xavfsizligi, raqamli mulk, innovatsion texnologiyalar.

Abstract. This article analyzes the economic, legal, and social aspects of virtual tourism emerging on the basis of metaverse technologies. It examines the development of metaverse tourism, its impact on the global economy, user data security, digital property rights, and the formation of a virtual labor market. Additionally, the article presents proposals for introducing metaverse technologies into Uzbekistan's tourism system and improving the corresponding regulatory framework.

Keywords: metaverse tourism, virtual reality, digital economy, data security, digital property, innovative technologies.

Аннотация. В данной статье анализируются экономические, правовые и социальные аспекты виртуального туризма, формирующегося на основе технологий метавселенной. Освещаются процесс развития туризма в метавселенной, его влияние на мировую экономику, безопасность пользовательских данных, права на цифровую собственность и формирование виртуального рынка труда. Также выдвигаются предложения по внедрению технологий метавселенной в туристическую систему Узбекистана и совершенствованию нормативно-правовой базы.

Ключевые слова: туризм в метавселенной, виртуальная реальность, цифровая экономика, безопасность данных, цифровая собственность, инновационные технологии.

KIRISH

So'nggi yillarda metaolam texnologiyalari global miqyosda turizm sohasining yangi bosqichga o'tishiga zamin yaratmoqda. Virtual olamda sayohat qilish imkonini beruvchi ushbu yo'nalish "metaverse tourism" deb nomlanib, u virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va sun'iy intellekt texnologiyalarining uyg'unlashuvi asosida shakllanmoqda. Metaolam turizmi sayyohlarga uydan chiqmasdan dunyoning istalgan qismiga "sayohat qilish", tarixiy yodgorliklar, muzeylar va diqqatga sazovor joylarni 3D formatida ko'rish imkonini beradi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metaolam turizmi va virtual sayohat masalalari so'nggi yillarda turizm sohasidagi raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilmoqda. UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt, virtual reallik, kengaytirilgan reallik, blokcheyn va boshqa raqamli texnologiyalar turizm xizmatlarini tashkil etish, targ'ib qilish va iste'molchiga yetkazish jarayonlarini tubdan yangilamoqda. Bu esa virtual turizmning nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini ham oshirmoqda.



Monaco (2023) tadqiqotida metaverse texnologiyalarining turizm va gastronomik turizm sohasidagi imkoniyatlari hamda asosiy muammolari tahlil qilingan. Muallif metaolamni Web 3.0 bilan bog'liq yangi raqamli muhit sifatida baholab, uning sun'iy intellekt, blokcheyn va virtual reallik texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi turistik tajribani kengaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv virtual sayohatlar orqali foydalanuvchilarga real manzilga bormasdan turib madaniy va tarixiy obyektlar bilan tanishish imkonini beradi.

Buhalis, Yin va Xu (2025) metaverse tajribalarining mehmondo'stlik va turizm sohasiga ta'sirini o'rganib, ushbu texnologiyalar sayohatdan oldingi, sayohat davomida va sayohatdan keyingi tajribalar chegarasini kengaytirishini ko'rsatadi. Mualliflar metaverse turizmning asosiy xususiyatlari sifatida immersiv muhit, avatarlar orqali muloqot, gamifikatsiya va virtual-physical tajribalar uyg'unligini ajratib ko'rsatadi. Bu holat turizm mahsulotlarini ilgari sinab ko'rish, sayyohlik tanlovidagi noaniqlikni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi.

Huquqiy va axborot xavfsizligi masalalari ham adabiyotlarda alohida yo'nalish sifatida yoritiladi. Yevropa Komissiyasi virtual olamlar, ya'ni metaverse texnologiyalari imkoniyatlar bilan birga ma'lumotlar maxfiyligi, foydalanuvchi huquqlari va raqamli mulkni himoya qilish bo'yicha yangi yondashuvlarni talab etishini qayd etadi. Ayniqsa, virtual muhitda foydalanuvchilarning harakati, muloqoti va xatti-harakatlariga oid ma'lumotlar himoyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro manbalarda metaverse texnologiyalarining turizm va sayohat sanoati kelajagiga ta'siri ham keng muhokama qilinmoqda. World Economic Forum raqamlashtirish, barqarorlik va yangi texnologiyalar sayohat va turizm sohasining kelajakdagi rivojlanish ssenariylarini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kirishini ta'kidlaydi. Bu esa virtual turizmni an'anaviy turizmga muqobil emas, balki uni to'ldiruvchi innovatsion yo'nalish sifatida baholash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida metaolam turizmini rivojlantirish milliy turizm brendini raqamli maydonda keng targ'ib etish, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning virtual modellarini yaratish, yosh dasturchilar, dizaynerlar va virtual gidlar uchun yangi ish o'rinlarini shakllantirish bilan bog'liq istiqbolli imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, virtual mulk huquqi, mualliflik huquqi, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish va raqamli xizmatlarni tartibga solish bo'yicha milliy me'yoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati mavjud.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar metaolam turizmi turizm sanoatini raqamli transformatsiya qilish, foydalanuvchilarga immersiv tajriba yaratish, madaniy merosni global auditoriyaga taqdim etish va yangi raqamli iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishning barqaror rivojlanishi texnologik innovatsiyalar, huquqiy tartibga solish, axborot xavfsizligi va madaniy merosning haqqoniy talqinini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1. Metaolam turizmi bozori hajmi va o'sish sur'ati: Statista, PwC va Technavio ma'lumotlari asosida 2024–2028-yillarda virtual turizm bozorining rivojlanish dinamikasi, bozor hajmi hamda yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) AQSH dollari hisobida tahlil qilindi.

2. Virtual turizm platformalaridan foydalanish darajasi: "Google Arts & Culture", "Virtual Louvre", "VRChat Tourism" va boshqa platformalardagi foydalanuvchilar sonining o'sish ko'rsatkichlari hamda VR asosidagi virtual turlarning ommalashuvi foiz va foydalanuvchilar soni bo'yicha o'rganildi.

3. Metaolam texnologiyalarining turizm sanoatidagi ulushi: virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), aralash reallik (MR), sun'iy intellekt (AI) va blokcheyn texnologiyalarining turizm tizimidagi qo'llanish darajasi hududlar kesimida foiz hisobida solishtirildi.

4. Huquqiy va axborot xavfsizligi bilan bog'liq ko'rsatkichlar: Yevropa Komissiyasi, xalqaro raqamli iqtisodiyot hisobotlari hamda ilmiy manbalar asosida foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish, virtual mulk huquqi va raqamli tranzaksiyalarni tartibga solish bilan bog'liq masalalar tahlil qilindi.

5. Metaolam turizmining ijtimoiy ta'siri: virtual sayohatlarning insonlarning madaniy, ta'limiy va psixologik holatiga ta'siri ilmiy maqolalar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida o'rganildi. Jumladan, virtual reallikdan foydalanishdagi charchoq, raqamli muhitga ortiqcha bog'lanish va madaniy meros talqinining soddalashuvi bilan bog'liq holatlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon VR turizmi bozorining hajmi 2024-yilda 11,3 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga kelib 35 milliard AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda [2]. PwC tahlillariga ko'ra, metaolam turizmi 2030-yilga borib turizm sanoati umumiy daromadlarining 15–20 foizini tashkil etishi



mumkin. Yevropada VR asosidagi virtual turlar soni 2022–2024-yillarda 70 foizga oshgan. Shuningdek, “Meta Travel World”, “Virtual Louvre” va “Google Arts & Culture” kabi platformalarda foydalanuvchilar soni har yili oʻrtacha 25 foizga ortib bormoqda [3].

Metaolam turizmining iqtisodiy afzalliklaridan biri shundaki, u raqamli tajribalar orqali anʼanaviy sayohatlar bilan bogʻliq transport, mehmonxona va sugʻurta xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, VR chiptalari, NFT asosidagi virtual turlar, 3D suvenirlar va metaolamdagi reklama maydonlari yangi daromad manbalarini shakllantirmoqda [4].

2024-yilda 2,1 milliondan ortiq foydalanuvchi Trava, VRChat Tourism va MetaVoyage kabi platformalar orqali virtual sayohat xizmatlaridan foydalangan. Oʻzbekiston uchun metaolam turizmi iqtisodiyotning innovatsion yoʻnalishlaridan birini rivojlantirish, yosh dasturchilar, dizaynerlar va virtual gidlar uchun yangi ish oʻrinlarini yaratish imkoniyatiga ega. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini 3D formatda rekonstruksiya qilish hamda “Virtual Ipak yoʻli” loyihasi doirasida taqdim etish milliy turizm brendini yanada mustahkamlashi mumkin [5].

Shu bilan birga, ushbu yoʻnalish huquqiy jihatdan yanada takomillashtirishni talab etadigan masalalarni ham oʻz ichiga oladi. Metaolam muhitida yaratilgan virtual obyektlarning mulkiy huquqlari, foydalanuvchi maʼlumotlarini himoya qilish va kriptoaktivlar orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarni tartibga solish masalalari xalqaro miqyosda faol muhokama qilinmoqda [6]. Masalan, metaolamda foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan 3D obyektlarning mualliflik va mulkiy huquqlarini aniqlash boʻyicha yagona yondashuv hali toʻliq shakllanmagan. Shu sababli xalqaro huquq doirasida virtual mulkka egalik qilish tamoyillarini yanada rivojlantirish va mualliflik huquqlarini aniq belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekiston sharoitida ham raqamli iqtisodiyot va virtual xizmatlar bilan bogʻliq huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi [7].

Ijtimoiy nuqtayi nazardan, metaolam turizmi madaniy va taʼlimiy imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Virtual muhitda tashkil etilgan ekskursiyalar hamda tarixiy yodgorliklarni 3D formatda tomosha qilish imkoniyati yoshlarning bilim va dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mutaxassislar virtual muhitdan foydalanishda muvozanatni saqlash zarurligini ham taʼkidlamodalar [8]. Yevropa Psixologiya Assotsiatsiyasining 2024-yilgi hisobotiga koʻra, VR texnologiyalaridan foydalanuvchilarning 18 foizi virtual reallikdan foydalanish bilan bogʻliq charchoq holatlarini qayd etgan. Shuningdek, madaniy meros obyektlarini raqamli muhitda namoyish etishda ularning tarixiy mazmuni va haqiqiylikni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega [9].

Oʻzbekiston uchun ushbu texnologiya ikki yoʻnalishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Birinchidan, turizm sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, mamlakatning boy madaniy merosini global raqamli maydonda keng targʻib etish imkonini beradi. “Virtual Oʻzbekiston” loyihasi doirasida xorijiy sayyohlar uchun 3D turistik tajribalarni yaratish, sunʼiy intellekt asosidagi ovozi gidlar va avtomatik tarjima tizimlarini joriy etish turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu yoʻnalishda huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va yosh mutaxassislar uchun raqamli turizm boʻyicha taʼlim dasturlarini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [10].

Metaolam turizmi bozorining rivojlanish tendensiyalari shuni koʻrsatadiki, 2024–2028-yillarda metaolam texnologiyalarining turizm va sayohat sanoatida qoʻllanilishi yuqori surʼatlarda oʻsishi kutilmoqda. Tahlillarga koʻra, bozor hajmi 2024-yildagi 48,79 milliard AQSH dollaridan 2028-yilga kelib 155,17 milliard AQSH dollariga yetadi. Yillik oʻrtacha oʻsish surʼati (CAGR) 26,76 foizni tashkil etib, bu sohaga boʻlgan qiziqish va talabning ortib borayotganini koʻrsatadi.

Bozor rivojlanishida virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), aralash reallik (MR), sunʼiy intellekt (AI) va blokcheyn texnologiyalari muhim oʻrin tutmoqda. Virtual sayohatlar, mehmonxonalarning 3D turlari, interaktiv turizm xizmatlari va NFT asosidagi xizmatlar tobora ommalashib bormoqda. Hududlar kesimida Shimoliy Amerika 36 foiz ulush bilan yetakchi oʻrinni egallaydi. Yevropa 24 foiz va Osiyo-Tinch okeani (APAC) hududi 22 foiz ulushga ega boʻlib, ayniqsa Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreyada metaolam texnologiyalariga katta investitsiyalar yoʻnaltirilmoqda. Texnologiyalar tarkibida VR 40 foiz bilan eng katta ulushni egallaydi, undan keyin AR (25 foiz) va MR (20 foiz) texnologiyalari joylashgan. Sunʼiy intellekt va blokcheyn texnologiyalari esa foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar hamda yangi raqamli imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Shu bilan birga, bozor rivojlanishida ayrim tashkiliy va texnologik masalalar ham mavjud. AR va VR ilovalarini ishlab chiqish xarajatlari nisbatan yuqori boʻlib, loyiha qiymati 50 mingdan 100 ming AQSH dollarigacha yetishi mumkin. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik, maʼlumotlar maxfiylikni taʼminlash hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish bilan bogʻliq masalalar doimiy eʼtiborni talab etadi.

Umuman olganda, metaolam texnologiyalari turizm sanoatini raqamli transformatsiya qilishga xizmat qilib, foydalanuvchilarga yangi interaktiv tajribalarni taqdim etmoqda hamda kelajak turizmining istiqbolli yoʻnalishlaridan biriga aylanib bormoqda [11].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, metaolam turizmi an'anaviy sayohatlarni yangi bosqichga olib chiqib, innovatsion iqtisodiy model, zamonaviy huquqiy munosabatlar va yangi ijtimoiy tajribalarni shakllantirmoqda. Ushbu yo'nalishning samarali rivojlanishi texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda axborot xavfsizligini ta'minlash, foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish hamda madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metaolam texnologiyalarining turizm sohasiga joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish, yangi daromad manbalarini yaratish va turistik mahsulotlarning jozibadorligini kuchaytirish imkonini beradi. Virtual reallik, kengaytirilgan reallik va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish turizm xizmatlarining qamrovini kengaytirib, foydalanuvchilarga yangi interaktiv tajribalarni taqdim etadi.

O'zbekiston uchun mazkur jarayon turizm sohasini raqamli transformatsiya qilish, mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish hamda yangi raqamli xizmatlar bozorini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarning virtual modellarini yaratish, "Virtual O'zbekiston" va "Virtual Ipak yo'li" loyihalarini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Turizm sohasida metaolam texnologiyalarini joriy etish bo'yicha milliy konsepsiyani ishlab chiqish va amaliy dasturlarni kengaytirish.
2. Virtual turizm faoliyati bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish.
3. Axborot xavfsizligi va foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha zamonaviy standartlarni joriy etish.
4. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli turizm, VR/AR texnologiyalari va metaolam iqtisodiyoti yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlashni rivojlantirish.
5. Tarixiy-madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va ularni xalqaro virtual platformalarda targ'ib etishni kengaytirish.

Shunday qilib, metaolam turizmi O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada oshirish, mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyot rivojiga qo'shimcha turtki beruvchi istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [12].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xiang, Z., va Fesenmaier, D. R. (2021). Metavers va turizm tajribasi dizayni. Turizmni boshqarish istiqbollari, 40, 100902.
2. Statista hisoboti. (2024). Virtual reallik turizmi bozori hajmi 2020 - 2030 - yillar. Manba: <https://www.statista.com>
3. PwC Global hisoboti. (2023). Metavers turizmining iqtisodiy salohiyati. Manba: <https://www.pwc.com/metaverse>
4. UNWTO. (2024). Global turizm rivojlanishida virtual iqtisodiyot. Manba: <https://www.unwto.org>
5. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (2024). Raqamli turizmni rivojlantirish strategiyasi - 2030. Samarqand: Innovatsiyalar nashriyoti.
6. Yevropa komissiyasi. (2023). Metavers iqtisodiyotining huquqiy asoslari. Manba: <https://ec.europa.eu>
7. Rasulova N. D. (2025). Sun'iy intellekt asosida turizm xizmatlarini optimallashtirish. Zamonaviy ta'lim, (1, 8-qism), 78 - 82.
8. Jang, S., va Park, H. (2022). Virtual turizm tajribalarining axloqiy oqibatlari. Journal of Tourism Futures, 8 (3), 210 - 224.
9. Butunjahon turizm forumi. (2024). Raqamli asrda madaniy yaxlitlik. Jeneva.
10. Urazov J. Sutchilik yo'nalishidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida marketing elementlaridan foydalanish //Green Economy and Development. – T. 2. – №. 1. – C. 664276.
11. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). Metaolam texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi. Samarqand: Innovatsiyalar nashriyoti.
12. <https://www.technavio.com>
13. Turizm kelajagi va raqamli iqtisodiyot integratsiyasi. Manba: <https://www.weforum.org>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>